



“TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY
JURNALI**

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 10 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. eshbolta_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. navruza_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. nurillo_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. muxiddin_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,
Termiz, O'zbekiston. oltiboy_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. maqsuda_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv_urolova@tues.uz

MUNDARIJA

G. E. TURAYEVA

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

G.T. JUMAYEVA

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

O.Ch.XOLOV

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

N.M. SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

M.Y.MADIEVA

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

S.Q. ESHBOYEVA

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

N.N. SHODIYEVA

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

K.Sh.OLTIBOYEVA

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

U.A. TASHBAYEVA

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

M.Y.MADIEVA

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

R.D. NORQOBILOVA

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

G'.A. MAMARAJABOV

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

F.A. ABDURAZZOQOV

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

A.Ch. QOSIMOV

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

M.X. FAYZULLAYEVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

S.A. JABBOROVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

F. YORMATOV

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari70

R. R. KHAMRAEVA

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

I.H. JUMAYEV

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

N.A. UMAROVA

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

I.B. QARSHIYEVA

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89





Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Pedagogika va texnologik ta’lim” kafedrası dotsenti, (PhD)
Xolov Olimjon Chorshamiyevich

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA AKSIOLOGIYANING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aksiologiya va xalq og‘zaki ijodining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlar orqali aksiologik ongning shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari, shu jumladan, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, milliy qadriyat, xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘zlik, aksiologiya, ma’naviy-meros, milliy madaniyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль аксиологии и народного устного творчества. Также освещаются теоретические и практические аспекты формирования аксиологического сознания через народное устное творчество и национальные ценности, в том числе их роль в духовно-нравственном воспитании учащихся.

Ключевые слова: воспитание, национальные ценности, народное устное творчество, национальная идентичность, аксиология, духовное наследие, национальная культура.

ABSTRACT

This article analyzes the role of axiology and folk oral traditions. It also highlights the theoretical and practical aspects of developing axiological consciousness through folk oral creativity and national values, including their role in the moral and spiritual upbringing of students.

Keywords: education, national values, folk oral tradition, national identity, axiology, spiritual heritage, national culture.

Kirish. Agar insoniyat tarixiga nazar solsak, u millionlab yillar davomida shakllangan va rivojlangan jarayonni o‘zida jamlagan. Insoniyat taraqqiyoti boshlangan dastlabki ibtidoiy jamiyatlarda ham tarbiya jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida qabul qilingan. Har bir davrda har bir xalq yoshlarni axloq, odob, iymon va vijdon, bilim va ko‘nikmalar, xulq-atvor, urf-odat, an‘ana va marosimlar orqali o‘zligini anglashga o‘rgatishga alohida e‘tibor bergan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bizning xalqimiz ham tarix davomida ko‘plab bosqin va qiyinchiliklarga duch keldi, bu esa milliy qadriyatlarimizga ta‘sir ko‘rsatdi. Biroq, qiyin paytlarda ham mard va jasur xalqimiz o‘zining milliy o‘zligini, qadriyatlarini, tarbiyasini saqlab qoldi, ammo ularni erkin ifoda etishda cheklovlarga duch keldi. Ayniqsa, ana shunday murakkab davrlarda xalqimizning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, badiiy va diniy qadriyatlari hamda xalq og‘zaki ijodi yoshlarning ongiga singdirilishida to‘siqlar va cheklovlar bilan yuzlashdi[1].

Asosiy qism. Davlatimiz yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta e‘tibor qaratib, ularning mohiyatini to‘la ochib

berish va chuqur bilim berish orqali asl milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ko‘plab islohotlarni amalga oshirdi.

Ushbu islohotlar yurtimiz kelajagini mustahkamlash va dunyodagi barqaror o‘rnini belgilashda muhim poydevor bo‘ldi. Mustaqillik yillarida ta‘lim sohasida keng ko‘lamli ishlar olib borilib, ta‘lim tizimi isloh qilindi. Unda o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, milliy mentalitetga mos keladigan ta‘lim tizimini yaratish, shuningdek, o‘quvchilarda milliy o‘zlik va milliy g‘ururni shakllantirishga katta e‘tibor qaratildi.

Bugungi kunda milliy o‘zlik, tarix, til, hayot tarzi, an‘ana va urf-odatlar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz keng ochib berilmoqda va ularga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Ayni damda barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz tamonidan xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarga yanada e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada yurtimizda xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va uni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab qaror va farmonlar qabul qilinib uning ijrosi amalda ta‘minlanmoqda. Bunga misol tariqasida “Baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish

chora-tadbirlari”, “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab quvvatlash chora-tadbirlari”, “Xalqaro hunarmandchilik festivalini oʻtkazib borishga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, “Oʻzbek milliy maqom sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari”, “Milliy raqs sanʼatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari”, “Boysun bahori” ochiq folklor festivali qayta tiklash hamda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini yanada uyushqoqlik bilan oʻtkazish toʻgʻrisidagi qaror va farmonlari aytib oʻtish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan fikr hamda Prezidentimizning qaror va farmonlari qabul qilinganligi bejiz emas. Chunki bugungi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalarini rivojlanganligi, xalqimizga yod boʻlgan boshqa millat yaʼni “ommaviy madaniyat”ni kirib kelayotganligi tufayli xalq ogʻzaki ijodi vositasida oʻquvchilarda aksiologik ongni shakllantirish ayni dolzarb masalalardan biri ekanligini anglashimiz qiyin emas.

Shunday ekan, xalq ogʻzaki ijodi vositasida oʻquvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda oila va jamiyatda, taʼlim-tarbiyada milliy qadriyatlarimizga alohida eʼtibor qaratishimiz, yoshlarimizni xalq ogʻzaki ijodi va milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash vatan oldidagi burchimiz sifatida qaramogʻimiz lozim.

Adabiyotlar tahlili. Inson qadim zamonlardan beri atrofdagi voqea-hodisalarga oʻz munosabatini ifodalab kelgan. Bu munosabat dastlab turli xatti-harakatlar, tovushlar va his-tuygʻular orqali namoyon boʻlgan. Keyinchalik, his-tuygʻular soʻzlar va raqslar yordamida ifodalana boshlagan, undan soʻng odamlar dunyo, tabiat, hayvonlar, oʻsimliklar, togʻlar va suvlarning kelib chiqishini tushuntiruvchi turli hikoyalar yaratgan. Yigitlar va qizlar esa muhabbat qoʻshiqlarini bastalashgan. Qabila-urugʻning mard va jasur yigitlari hamda ularning ajoyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo boʻlgan. Bularning barchasi yozuv madaniyati paydo boʻlmasdan avval, jamoaviy hayot kechirayotgan insonlar orasida keng tarqalgan.

Hozirgu kunda pedagogik adabiyotlarda qadriyatga taaʼluqli keng manolarni beruvchi aksiologiya soʻzi keng ishlatilmoqda. Aksiologiya tushunchasi nima? Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Mazkur tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. “Aksiologiya” yunoncha soʻz boʻlib, axio - qadriyat, iogos -

taʼlimot, soʻz, yaʼni qadriyatlar haqidagi taʼlimot maʼnosini bildiradi.

I.T.Frolova tahriri ostidagi falsafiy lugʻat(1986) da aksiologiyaga qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan tadqiq etish, deb taʼrif beriladi[2].

Aksiologiya Gʻarb falsafasida XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida umumiy «qadriyatlar muammosi»ning baʼzi murakkab masalalarini hal etishga urinish sifatida yuzaga keldi. Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi «Falsafa: qomusiy lugʻat»da «aksiologiya»ga aksiologik ong, qadrlash tuygʻusi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida toʻplangan qadriyatlar toʻgrisidagi bilimlar sistemasi sifatida taʼrif berilgan. V.Ye.Kemerov umumiy tahriri ostidagi zamonaviy falsafiy lugʻatda «aksiologiya» tushunchasi insonda kelajakka boʻlgan oʻzining hayotiy intilishlari, mavjud hayot uchun moʻljalni ola bilish, oʻtmish, «boshqa», umum ahamiyatlilikni oqlash yoki ayblashni qadriyatli loyihalash shakl va usullari haqidagi taʼlimot sifatida taʼrif beriladi. Aksiologiya tushunchasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi taʼlimotga qaraganda, keyinroq paydo boʻlgan.

Mazkur tushuncha XIX-asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunosi Eduard Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lugʻatda XIX-asrning 60-yillarida paydo boʻlganligi taʼkidlab oʻtilgan. Falsafiy lugʻatning 5-jildida qadriyatga quyidagicha taʼrif berilgan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir obʼektning ijobiy va salbiy qiimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (subʼektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi».

“Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot” nomli ilmiy ishlar toʻplamida: “Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli boʻlgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat neʼmatlari hodisalari majmuini tushunmogʻimiz lozim”, deb taʼkidlab oʻtilgan.

“Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lugʻat”da: “Qadriyatlar - jamiyatda kishilar oʻrtasida obroʻga, eʼtiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va maʼnaviy boyliklar majmuasi”, degan taʼrif berilgan.

Qomusiy lugʻatda “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-maʼnaviy ahamiyatini koʻrsatish uchun qoʻllaniladigan falsafiy-sotsiologik va



aksiologik tushuncha», deb ta'rif berilgan. O.Tohirov, B.Ochilovalarning ta'kidlashicha, "Qadriyat - bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir".

"Qadriyatlar, - deb yozadi O.Musurmonova, - inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir".

Siyosatshunos olim N.Jo'rayevning ta'kidlashicha, "Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat xodisalari majmui tushunilishi lozim"[3].

Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rastadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi: Bular - narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emotsional munosabatini ta'riflash, insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish, odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta'riflash.

"Qadriyat" tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarining turli ko'rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy) larini ajratib ko'rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi.

O'quvchilar faoliyatida o'qitish odatda shubhasiz didaktik printsiptan sifatida qaraladi. Shu jumladan bir vaqtning o'zida bunday kombinatsiyalarda: "ong va faoliyat", "Ong, faollik va mustaqillik", "ongli faoliyat va mustaqillik" kabilarga ham e'tibor berilish kerak[4]. Ya'ni qadriyatlarni singdirishda o'quvchilar ongi tafakkuri xohish istagidan kelib chiqib dars va darsdan tashqari ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Yuqoridagi fikrlarga tayanib o'qituvchilarimizga belgilangan tartibda maktab darsliklari hamda rejasiga ta'sir etmay, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda nazariy

(ma'naviy-ma'rifiy meroslarimiz) ma'lumotlar berish;

- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda amaliy (tarixiy qadamjolar, muzeylar) ishlarni olib borish;

- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda oilalar bilan hamkorlik ishlaridan to'liq foydalanish.

Maktab ko'p funksiyalarni birlashtiradi. Ba'zida "maktab va hayot" o'rtasidagi o'zaro bog'lanish muammosiga ham duch kelinadi. Ammo o'qituvchilar ta'limni turli ko'rinishlarda olib borishi o'quvchilarni har tomondan shakllantiradi[5].

Shu o'rinda aytish kerakki yoshlarimizning milliy madaniyat va qadriyatlarining mazmunini bilish, ularga e'tiqod qilishi, yoshlarimizda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Vatan baxt-saodati va milliy istiqlolimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga, komil inson bo'lib voyaga yetishga undaydi. Milliy qadriyatlar bir millat a'zolari ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, milliy til, milliy adabiyot, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ahloqiy jihatlari, urf-odatlarini, an'analarini kabilardir.

Umuminsoniy qadriyatlar esa jamiyat taraqqiyoti davomida takomillashib borib, kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushinish, o'zlarining xatti-harakatlarini ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Umuminsoniy qadriyat jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrlil va umum ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar, hodisalar, sifat, faoliyat va boshqalarning ismi yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrlini ifodalash uchun ishlatiladigan aksiologik tushunchadir. Yoshlarimiz ongiga singdirilayotgan milliy istiqlol g'oyasi ma'naviy meros asosidagi umuminsoniy qadriyatga tayanadi. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning, millatlarninggina emas, balki bashariyatning mulkidir. Zero, millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ayri holda yarata olmaydi. Milliy o'zlikni anglashda milliy g'oya, mafkura va millatga xos bo'lgan yangilanish jarayonlari jadal rivojlanmog'i lozim.

Xulosa. Yangi O'zbekiston "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyot yo'lini tanlab, buyuk davlatga aylanish jarayonida ta'lim-tarbiya ishlarini samarali yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar bilan doimiy tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyot taqdiri zamonaviy

bilimlarga ega, murakkab texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan, iymoni mustahkam, irodasi qat'iyatli, teran tafakkurli va yuqori salohiyatli kadrlarning qo'lida bo'ladi. Mamlakatimiz kelajagi uning intellektual salohiyati, aql-zakovati, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon standartlari asosida takomillashtirish hamda milliy ildizlarini mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayoni orqali yoshlarning milliy qadriyatlar qatoriga kiruvchi axloqiy fazilatlarini shakllantirish, jamiyatdagi o'yaviy va mafkuraviy jarayonlarga nisbatan munosabatlarini yangilash hamda barkamol shaxs sifatida yetishishda xalq og'zaki ijodi hamda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega.

Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz yosh avlodga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz o'sib kelayotgan yosh avlodga quyidagi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi, do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat;

- yaxshilik va yomonlikning oqibati;

- halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi;

- adolat, insof va insofsizlik, do'stlik, mehr-oqibat va insonparvarlik;

- botirlik va qo'rqqoqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati; - qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafoqlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, me'yor va me'yorsizlik, ma'suliyat va ma'sulyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari:

- kattaga hurmat, yoshga mehr shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, kiyinish, so'zlash, turmush tarzi, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati, rasm-rusmlar, odatlar, marosimlar va an'analardir.

Umumiy xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz ta'limiy-

tarbiyaviy jihatidan juda serqirradir. Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz yoshlarni milliy ruhda qolaversa har qanday insonga ma'naviy ozuqa berishi bilan ahamiyatlidir. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlardan unumli foydalanib o'quvchi yoshlarning aksiologik ongini shakllantirish yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan. 22.12.2017.

2. Xodjayev B.X. "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma. T. "Fan va texnologiya", 2011. - 156 bet.

3. Nazarov Q. Falsafa qomusiy lug'at. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. - 472 b.

4. Xolov, O. (2025). Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari. МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ ЖУРНАЛИ, 3(9).

5. Xolov, O. (2024). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARIDA MILLIY TARBIYA. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 16(8).